O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“REAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“Xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalari”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil 25-mart

II bo‘lim

SAMARQAND-2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“REAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“Xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalari”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil 25-mart

II bo‘lim

SAMARQAND-2025

UO‘K: 338.46
X 59
KBK: 65.9(2)30

Xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalari // xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2025-yil 25-mart. Samarqand, SamISI, 2025. – 336 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
Z.S.Artikov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Nashr uchun mas’ullar:
D.X.Aslanova – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;
G.M.Shadiyeva – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
B.A.Abdukarimov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
T.S.Sharipov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
Sh.O.Quvandiqov – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
Sh.A.Sultonov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
R.J.Qurbonova – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
U.N.Nurmorodov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
Z.I.Abdullayeva – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
B.O.Do‘stmatov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
A.P.Xazratov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
L.U.Maxmudov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
Z.K.Raximov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;

Sahifalovchilar:
M.E.Erdonov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
Sh.N.Mirzayeva – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
S.B.Iskandarov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
A.I.Asrorov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
V.A.Fozilov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va zamonaviy texnologiyalarni yaxshilashning nazariy metodologik masalalari,xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning muammo va yechimlari, xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va zamonaviy texnologiyalardan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda foydalanish,xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalarini yaxshilash dasturlari va rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish masalalari,xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalarini qo‘llashda investitsion va innovatsion masalalar bo‘yicha nazariy hamda amaliy tavsiyalar o‘rin olgan.

Ushbu to‘plamda professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrlar va iqtidorli talabalarning xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalariga bag‘ishlangan maqola va tezislari o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar, magistrlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, davlat idoralari xizmatchilari va shu soha mutaxassislari o‘z faoliyatlarida foydalanishi mumkin.

Tezislar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktлar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

В материалах научно-практической конференции рассмотрены теоретические и методические вопросы осуществления структурных изменений в сфере услуг и совершенствования современных технологий, проблемы и решения использования современных технологий при реализации структурных изменений в сфере услуг, реализации структурных изменений в сфере услуг и использования современных технологий в социально-экономическом развитии регионов, вопросы разработки программ и стратегии развития реализации структурных изменений в сфере услуг, программы совершенствования современных технологий в сфере услуг. теоретические и практические рекомендации по инвестиционно-инновационным вопросам применения современных технологий реализации изменений.

В сборнике собраны статьи и тезисы профессоров, преподавателей, докторантов, независимых исследователей, магистров и талантливых студентов о современных технологиях реализации структурных изменений в сфере услуг.

Материалы сборника могут использовать бакалавры, магистры, докторанты, независимые исследователи, сотрудники государственных органов и специалисты данной области, обучающиеся в области экономики.

Тезисы редактируются авторами. Авторы несут ответственность за представленные в них цифры, факты, выводы и рекомендации. Некоторые их мнения могут не соответствовать взглядам организационной группы.

The materials of the scientific and practical conference include theoretical and methodological issues of implementing structural changes and improving modern technologies in the services sector, problems and solutions of using modern technologies in implementing structural changes in the services sector, implementing structural changes in the services sector and using modern technologies in the socio-economic development of regions, issues of developing programs and development strategies for improving modern technologies for implementing structural changes in the services sector, theoretical and practical recommendations on investment and innovation issues in applying modern technologies for implementing structural changes in the services sector.

This collection contains articles and theses by professors, doctoral students, independent researchers, masters and talented students on modern technologies for implementing structural changes in the services sector.

The materials in the collection can be used by bachelors, masters, doctoral students, independent researchers, government officials and specialists in this field studying in the field of economics.

Abstracts are edited by the authors. The authors are responsible for the figures, facts, conclusions and recommendations presented therein. Some of their views may not reflect those of the organizational group.

ISBN: 978-9910-702-99-0

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2025.
© “STEP-SEL” MChJ nashriyoti, 2025.

I SHO‘BA. XIZMATLAR SOHASIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISH VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI YAXSHILASHNING NAZARIY METODOLOGIK MASALALARI.

SAVDO XIZMATLARINING IQTISODIY TASNIFLANISHI

ARTIKOV ZOKIR SAYFIDDINOVICH
O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent
Muallifning elektron manzili: zokirartikov86@gmail.com
Muallifning uyali aloqa raqami: +99897 918 70 74

Annotatsiya. Maqolada savdo xizmatlarining iqtisodiy tabiati va ularning tasniflanishi tahlil qilinadi. Savdo xizmatlari bozor iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular iste’molchilarga mahsulot va xizmatlarni yetkazib berish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Maqolada savdo xizmatlarining asosiy xususiyatlari, ularning iqtisodiy ahamiyati hamda turli tasniflash mezonlari asosida guruhlanishi yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy savdo xizmatlari va raqamli texnologiyalarning ularning rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Savdo xizmatlari, iqtisodiy tabiati, tasniflash, chakana savdo, ulgurji savdo, xizmatlar bozori, elektron tijorat, raqamli texnologiyalar.

Аннотация: В статье анализируется экономическая природа торговых услуг и их классификация. Торговые услуги являются важной составляющей рыночной экономики, поскольку способствуют эффективной организации процесса доставки товаров и услуг потребителям. В статье рассматриваются основные характеристики торговых услуг, их экономическое значение, а также их классификация на основе различных критериев. Кроме того, анализируется влияние современных торговых услуг и цифровых технологий на их развитие.

Ключевые слова: Торговые услуги, экономическая природа, классификация, розничная торговля, оптовая торговля, рынок услуг, электронная коммерция, цифровые технологии.

Annotation: This article analyzes the economic nature of trade services and their classification. Trade services are a crucial component of the market economy, facilitating the efficient organization of the process of delivering goods and services to consumers. The article examines the key characteristics of trade services, their economic significance, and their classification based on various criteria. Additionally, the impact of modern trade services and digital technologies on their development is analyzed.

Keywords: Trade services, economic nature, classification, retail trade, wholesale trade, service market, e-commerce, digital technologies.

Kirish. Hozirgi zamon iqtisodiyot sharoitida savdo xizmatlari milliy va xalqaro bozorlarning samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Iste’molchilar va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi vositachi bo‘lib xizmat qiluvchi savdo sohasi iqtisodiy o‘sish, bandlik darajasini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Savdo xizmatlari tovarlarni yetkazib berish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, logistika, marketing va boshqa ko‘plab jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va elektron tijoratning rivojlanishi savdo xizmatlarining ko‘lamini kengaytirib, ularning samaradorligini oshirmoqda.

Asosiy qism. Ushbu bo‘limda savdo xizmatlarining iqtisodiy mohiyati va tasniflanishini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari yoritiladi. Savdo xizmatlarining roli, ularning turli jihatlari hamda O‘zbekistonda ushbu sohaning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, savdo xizmatlari iqtisodiy tizimning ajralmas qismi bo‘lib, u quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

➲ Tovar va xizmatlarning bozorga yetib borishini ta’minlash – ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi aloqani yo‘lga qo‘yadi;

➲ Bozor muvozanatini saqlash – talab va taklifni muvozanatlash orqali narx barqarorligini ta’minlaydi;

➲ Ish o‘rinlari yaratish – savdo xizmatlari sohasi bandlik darajasini oshirishga yordam beradi;

➲ Raqobat muhitini shakllantirish – bozorda samaradorlik va sifatni oshirishga xizmat qiladi;

➲ Innovatsiyalarni joriy qilish – elektron tijorat va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali savdo xizmatlarining yangi formatlarini yaratadi.

Tadqiqot davomida savdo xizmatlarini turli mezonlar asosida tasniflash mumkinligi aniqlandi. [16] Ularning eng muhimlari quyidagilar:

a) Savdo xizmatlarining shakliga ko‘ra

→ Chakana savdo (retail trade) – yakuniy iste’molchilarga mahsulot yetkazib berish xizmatlarini o‘z ichiga oladi;

→ Ulgurji savdo (wholesale trade) – ishlab chiqaruvchilar, distribyutorlar va korxonalar o‘rtasidagi savdo jarayonlarini qamrab oladi.

b) Ko‘rsatish usuliga ko‘ra

→ An’anaviy savdo xizmatlari – jismoniy do‘konlar va bozorlar orqali amalga oshiriladi;

→ Elektron tijorat va onlayn xizmatlar – internet platformalar orqali amalga oshiriladigan savdo operatsiyalarini o‘z ichiga oladi.

c) Bozor ishtirokchilariga ko‘ra

→ B2B (Business to Business) – kompaniyalar o‘rtasidagi savdo xizmatlari;

→ B2C (Business to Consumer) – korxonalar va yakuniy iste’molchilar o‘rtasidagi savdo xizmatlari;

→ C2C (Consumer to Consumer) – iste’molchilar o‘rtasidagi onlayn platformalar orqali amalga oshiriladigan savdo xizmatlari.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda savdo xizmatlari sohasida bir qancha muhim o‘zgarishlar kuzatilmoqda:

⇨ Savdo infratuzilmasining rivojlanishi – yangi savdo markazlari, bozorlar va logistika tarmoqlari kengaymoqda;

⇨ Elektron tijoratning tez sur’atlarda o‘sishi – elektron to‘lov tizimlarining rivojlanishi natijasida internet-do‘konlar soni ko‘paymoqda;

⇨ Xalqaro savdoga integratsiya jarayoni – O‘zbekiston xalqaro savdo tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirib, eksport-import hajmini oshirmoqda;

⇨ Raqobat muhitining kuchayishi – mahalliy va xorijiy kompaniyalar o‘rtasida savdo xizmatlari bozorida raqobat tobora ortib bormoqda.

Tadqiqotdan quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

⇨ Savdo xizmatlari iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u tovarlar harakati va iste’molchilarga yetkazib berish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

⇨ Savdo xizmatlarini tasniflashda chakana va ulgurji savdo, an’anaviy va elektron tijorat, B2B, B2C va C2C kabi modellarning o‘ziga xos xususiyatlari bor.

⇨ O‘zbekistonda savdo xizmatlarining rivojlanishi ijobiy dinamikaga ega bo‘lib, elektron tijoratning o‘sishi va raqobat muhitining kuchayishi kuzatilmoqda.

⇨ Biroq, sohada infratuzilma yetishmovchiligi, logistika muammolari va raqamli xizmatlarning rivojlanishidagi ayrim cheklovlar mavjud.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, savdo xizmatlari zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlaydi, bozor muvozanatini saqlaydi va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi. Savdo xizmatlarining iqtisodiy mohiyati va tasniflanishi turli yondashuvlar asosida tahlil qilindi va quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Birinchidan, savdo xizmatlari iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismi bo‘lib, ular nafaqat tovar almashinuvi, balki mehnat bozori, innovatsiyalar va moliyaviy tizimlar bilan ham bog‘liq.

Ikkinchidan, savdo xizmatlari turli shakllarga ega: chakana va ulgurji savdo, an’anaviy va elektron tijorat, B2B, B2C va C2C kabi zamonaviy modellar tobora keng tarqalmoqda.

Uchinchidan, O‘zbekistonda savdo xizmatlari sohasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda: elektron tijoratning rivojlanishi, savdo infratuzilmasining kengayishi va xalqaro savdoga integratsiya jarayonlari jadallashmoqda.

To‘rtinchidan, ba’zi muammolar ham mavjud: savdo logistikasining rivojlanmaganligi, raqamli savdo infratuzilmasidagi kamchiliklar, kichik biznes va tadbirkorlar uchun moliyaviy resurslarning cheklanganligi.

O‘zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirish uchun elektron tijoratni kuchaytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali savdo xizmatlari sohasi yanada samarali rivojlanib, mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adam Smith. *The Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.
2. David Ricardo. *Principles of Political Economy and Taxation.* London: John Murray, 1817.
3. Joseph Schumpeter. *The Theory of Economic Development.* Harvard University Press, 1934.
4. Philip Kotler, Kevin Lane Keller. *Marketing Management.* Pearson Education, 2016.
5. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.
6. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti.

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Musinov Dilshod Sultanovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Real iqtisodiyot kafedrasi dotsenti v.v.b., PhD
dilshodmusinov1978@gmail.com
+99890-100-00-09

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati aniqlanib, uning mezonlari va ko‘rsatgichlari tasniflangan hamda mehnat salohiyatini oshirishning asosiy yo‘nalishlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish korxonasi, mehnat resurslari, mehnat salohiyati, mezon, ko‘rsatgich, mehnat jarayoni, mehnat samaradorligi, mehnat resurslari sifat tarkibi.

Аннотация. В данной статье описывается социально-экономическое значение повышения эффективности использования рабочей силы в сфере услуг, классифицируются их критерии и показатели, а также исследованы основные пути повышения трудового потенциал.

Ключевые слова: качество обслуживания предприятий, трудовые ресурсы, трудовой критерии, показатели, трудовой процесс, производительность труда, трудовые ресурсы.

Abstract. The article describes the socio-economic importance of increasing the efficiency of using the labor force in the services sector, classifying their criteria and indicators, and also examining the main ways of increasing the labor potential.

Keywords: quality of service of enterprises, labor resources, labor potential, criteria, indicators, labor process, labor productivity, labor resources.

XX asrning 70-yillaridan boshlab rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish iqtisodiyotini qaror topib borishi bilan xizmat ko‘rsatish sohasi tadqiqotiga, uning rivojlanish tendensiyalariga iqtisodchi olimlar katta e’tibor bera boshladilar. Iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish faoliyatining rivojlanib borishi bilan uning samaradorligini baholashdagi yondoshuvlar ham nafaqat o‘zgarib bordi, balki xizmat ko‘rsatish sohasida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish alohida ahamiyat kasb eta boshladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi mohiyati va mazmuniga ko‘ra, zamonaviy hayot sifatini ta’minlash bilan bog’liq bo’lgan inson kapitali rivojlanishiga shart-sharoit yaratish hamda mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajaga o‘tishini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan inson faoliyatining turli ko‘rinishlarini va yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda sohada mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish alohida dolzarb hisoblanib, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga egadir.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi – bu kam mehnat sarfi va yuqori xizmat sifati orqali iste’molchilar ehtiyojini yuqori darajada qondirish uchun tovarlar va xizmatlar realizatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p tomonlama faoliyat natijasida erishishda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik balansining mehnat munosabatlari orqali aks ettirishdir.

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish kompleks dasturi mezonining murakkabligi uning maqsadlari va resurslarini tavsiflovchi ko‘rsatgichlar zarurligini taqozo etadi. Bizning fikrimizcha, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish iqtisodiyotini zamonaviy tarmoqlari singari rivojlanib borayotgan sohadir. Shunga ko‘ra, mazkur sohada faoliyat yurituvchi xo‘jalik sub’ektlari iqtisodiy samaradorligini barcha ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlari quyidagi jihatlari quyidagi mezonlarda o‘z aksini topadi:

– iste’molchilarning turli qatlamlariga mos xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirish;

– xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan taklif etilayotgan xizmatlarni ommabopligini ta’minlash;

– xo‘jalik sub’ektlari faoliyatlarining natijadorligini oshirish;

– sarflarning nisbiy darajasini pasaytirish;

– sohada yuqori unumdorlikni ta’minlashga erishish.

Mazkur mezonlar xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatgichlar yordamida aniqlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlik ko‘rsatgichlarini turlicha: baholash miqyosi bo‘yicha, resurslardan foydalanish darajasi bo‘yicha, ko‘rsatgichlarning ahamiyati bo‘yicha, ularning qarorlar qabul qilishdagi roli bo‘yicha, umumlashtirish darajasi va hokazolar bo‘yicha tasniflari uchraydi.

Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatgichlari ikki guruhga: xususiy va umumlashgan ko‘rsatgichlarga bo‘linadi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini tavsiflovchi xususiy ko‘rsatgichlarga mehnat resurslaridan foydalanish ko‘rsatgichlari, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish ko‘rsatgichlari kiradi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarining iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatgichlari tizimida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorlik ko‘rsatgichlari alohida o‘rin egallaydi. Bizning fikrimizcha xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasi (natural va qiymat ko‘rsatgichlari); o‘rtacha mehnat haqqi; bir xodim hisobiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmining o‘sish sur’ati va mehnatga haq to‘lash sur’atining nisbati; mehnat haqqining bir so‘mga olingan natija ko‘rsatgichlari tizimidan foydalanib, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini keng tavsifiga ega bo‘lish mumkin.

Ijtimoiy samaradorlikning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi ikkinchi mezoni ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishiga bilvosita ta’sir qiluvchi iste’mol xarajatlarini kamaytirishdir.

Xizmat ko‘rsatish tizimida ijtimoiy samaradorlikni yagona mezon bilan o‘lchab bo‘lmaydi, chunki soha ijtimoiy samaradorligining mezoni va ko‘rsatkichlari bir xil emas. Agar ijtimoiy samaradorlikning mezoni uning mazmuni va vazifasini ifodalasa, ko‘rsatkichlari esa samaradorlikni o‘lchash va baholash quroli bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy samaradorlikni statistik ko‘rsatkichlarini quyidagi guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Iste’molchilik talabi statistik ko‘rsatkichlar; qondirilishini tavsiflovchi statistik ko‘rsatgichlar

2. Xizmat ko‘rsatish vaqtini qisqarishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar;

3. Mehnat sharoiti va xarakterini yaxshilanishini tavsiflovchi statistik ko‘rsatkichlar.

Iste’molchilar talabini qondirishni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarga, fikrimizcha quyidagilar kiradi:

– xizmat ko‘rsatiladigan aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi;

– xizmat ko‘rsatiladigan aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi xizmatlar miqdori;

– ko‘rsatiladigan xizmatlar oshib borish koeffitsenti;

– xizmat ko‘rsatish vaqtini qisqartirishni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar;

– iste’molchilarning xizmat ko‘rsatish korxonalarida sarflaydigan vaqtini kamaytirish koeffitsenti;

– bir iste’molchiga xizmat ko‘rsatish uchun sarflaydigan vaqt;

– bir iste’molchining xizmat ko‘rsatish korxonasiga qayta tashrif buyurishi uchun sarflangan vaqt. Bu ko‘rsatkich ijtimoiy samarani pasayganligidan dalolat beradi;

– o‘rtacha bir marta xizmat ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan kishi uchun sarflanadigan vaqt;

Yuqorida ta’kidlangan ko‘rsatkichlardan alohida bittasi qo‘llanilsa, umumiy natijadorlikni ifodalamaydi. Chunki har bir ko‘rsatkich, ijtimoiy samaraning kichik bir yo‘nalishinigina xarakterlaydi. Bu ko‘rsatkichlar birgalikda qo‘llanilsa, xizmat ko‘rsatish korxonalarining ijtimoiy samaradorligiga to‘liq baho berish mumkin.

Развитие сферы услуг и туристической индустрии в Узбекистане: тенденции, вызовы и перспективы

З.И.Усманова, доцент кафедры Маркетинг СамИЭС,
Д.Джураева, докторант СамИЭС

Аннотация: В статье рассматривается динамика развития сферы услуг в Узбекистане, её вклад в экономику страны, а также перспективные направления, включая туристическую индустрию. Приводятся стратегические инициативы, направленные на повышение конкурентоспособности и улучшение инфраструктуры туризма. Подчеркивается важность цифровых технологий и стратегического управления в продвижении туристического потенциала страны.

Ключевые слова: сфера услуг, туризм, экономическое развитие, инфраструктура, конкурентоспособность, цифровые технологии, туристическая индустрия.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish dinamikasi, uning mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasi hamda turizm industriyasi va boshqa istiqbolli yo‘nalishlarni qamrab olgan holda tahlil etiladi. Turizm infratuzilmasini yaxshilash va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan strategik tashabbuslar keltiriladi. Shuningdek, mamlakatning turistik salohiyatini ilgari surishda raqamli texnologiyalar va strategik boshqaruvning muhim roli alohida ta’kidlanadi.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, turizm, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma, raqobatbardoshlik, raqamli texnologiyalar, turizm sanoati.

Abstract: The article examines the dynamics of the development of the service sector in Uzbekistan, its contribution to the country's economy, as well as promising areas, including the tourism industry. Strategic initiatives aimed at increasing competitiveness and improving tourism infrastructure are presented. The importance of digital technologies and strategic management in promoting the country's tourism potential is emphasized.

Key words: services sector, tourism, economic development, infrastructure, competitiveness, digital technologies, tourism industry.

Сфера услуг занимает важное место в современной экономике, охватывая практически все предприятия и организации, так или иначе связанные с предоставлением услуг. Каждый человек ежедневно взаимодействует с этим сектором — это мобильная связь, интернет, торгово-развлекательные центры, кафе и рестораны, салоны красоты, медицинские и образовательные учреждения, транспортные перевозки. Всё это входит в состав сферы услуг и формирует её разнообразие.

Сфера услуг представляет собой обобщённую экономическую категорию, объединяющую широкий спектр сервисов, предоставляемых компаниями, учреждениями и частными лицами. По сути, это сектор экономики, ориентированный на удовлетворение коммерческих, профессиональных и бытовых потребностей общества.

За последние пять лет сфера услуг в Узбекистане демонстрировала устойчивый рост, исключением стал 2020 год, когда из-за пандемии наблюдалось снижение показателя до 99,2%. В последующие годы темпы роста восстанавливались: в 2021 году – 110,9%, в 2022 году – 109,1%, в 2023 году – 107,1%, в 2024 году – 107,7%.

По итогам 2024 года валовая добавленная стоимость сферы услуг в Узбекистане составила 657,3 трлн сумов ($50,57 млрд), что на 7,7% больше по сравнению с 2023 годом. Об этом сообщило Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан[1].

Одним из перспективных направлений данной сферы является предоставление туристических услуг

В настоящее время туристическая индустрия является стратегически важным направлением развития. Политическая обстановка, эпидемия вируса, другие неблагоприятные факторы внешней среды привели к необходимости полного пересмотра стратегии развитии данного направления. Многие внешние направления перестали развиваться, произошла переориентация на внутренний туризм. Встали вопросы наличия необходимой инфраструктуры, качественной сферы обслуживания увеличивающихся туристических потоков. В данном аспекте существует ещё большое количество нерешённых проблем, конкурентоспособность отечественных средств размещения во многих случаях ниже, чем западных отелей и гостиниц. Уровень сервиса, индустрия развлечения отстают в своём развитии по сравнению с лучшим мировым опытом. Для решения указанных проблем можно использовать современный метод стратегического управления. Формирование и

[1] https://daryo.uz/ru/2025/02/05/dohody-sfery-uslug-v-uzbekistane-vyrosli-na-77%25-v-2024-godu

реализация стратегии развития поможет туристической индустрии повысить свою конкурентоспособность в мировом туризме

В принятой в нашей стране Стратегии 2030 намечено увеличение числа туристов путем создания широких условий для развития внешнего и внутреннего туризма в Узбекистане, а именно доведение числа зарубежных туристов до 15 миллионов, внутренних туристов — до 25 миллионов, туристов, приезжающих по паломническому туризму, — до 3 миллионов.

Кроме того, намечено создание в республике 30 крупных туристских кластеров, увеличение не менее чем в 2 раза количества гостевых мест, строительство 25 канатных дорог в горной местности, доведение количества туристских махаллей до 175. Доведение экспорта туристских услуг до 5 миллиардов долларов, медицинского и образовательного туризма — до 1,5 миллиарда долларов в год. Разработка национальной программы «Жемчужины древней истории» и реставрация в ее рамках объектов культурного наследия, создание на территории памятников «музеев под открытым небом».

Генеральный секретарь ООН Антонио Гутерриш заявил, что туризм как один из крупнейших секторов глобальной экономики обладает огромным потенциалом для сближения культур, создания новых возможностей и содействия устойчивому развитию.

Несмотря на то, что индустрия туризма более всего пострадала от пандемии коронавируса, этот сектор восстанавливается очень быстро. По данным ЮНВТО, оборот индустрии международного туризма к концу 2023 года достиг 88% от допандемийного уровня.

В последние годы наблюдается значительное расширение туристической инфраструктуры региона, включая рост числа гостиниц, транспортных услуг и сервисных предприятий. В 2024 году Самарканд посетили 2 миллиона 523 тысячи иностранных и 4 миллиона 715 тысяч местных туристов. Средняя продолжительность их пребывания составила 2,7 дня, а экспорт туристических услуг достиг 537 миллионов долларов США. В настоящее время в регионе функционируют 642 средства размещения общей вместимостью 18 тысяч мест.

Для того, чтобы более активно использовать синергетические эффекты, необходимо внедрять цифровые технологии, а именно осуществлять:

- Внедрение цифровых решений в бронировании, навигации и информационной поддержке туристов;
- Расширение онлайн-продвижения туристических продуктов через соцсети, платформы бронирования и цифровую рекламу;
- Создание национального бренда Узбекистана как привлекательного туристического направления.

Более широкое использование цифровых технологий может помочь реализации цели улучшения имиджа территорий и продвижению туристических продуктов. Необходима более активная программа SMM продвижения туризма Узбекистана.

Развитие сферы услуг и туристической индустрии является важным направлением экономического роста Узбекистана. За последние годы страна демонстрирует уверенный прогресс в этом секторе, однако дальнейшее развитие требует комплексного подхода. Стратегия 2030 определяет ключевые приоритеты, направленные на повышение конкурентоспособности, улучшение инфраструктуры и привлечение иностранных и внутренних туристов.

Для успешной реализации стратегии необходима тесная координация между государством, бизнесом и образовательными учреждениями. Современные технологии, эффективное управление ресурсами и усиление международного сотрудничества помогут Узбекистану занять достойное место на мировом туристическом рынке.

Список использованных источников

1. file:///C:/Users/User/Downloads/k-voprosu-o-strategii-razvitiya-turisticheskoy-industrii-v-rf.pdf
2. https://dunyo.info/ru/prezident/prezident-uzbekistana-podderzhka-predprinimatelstva-%E2%80%93-nash-strategicheskiy-put

SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

ARTIKOV ZOKIR SAYFIDDINOVICH
O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent
Muallifning elektron manzili: zokirartikov86@gmail.com
Muallifning uyali aloqa raqami: +99897 918 70 74

Annotatsiya. Usbu maqolada savdo xizmatlarini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari tahlil qilingan. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda savdo xizmatlari nafaqat iqtisodiy o‘sishning muhim omili, balki innovatsion biznes modellarini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda savdo xizmatlarining asosiy yo‘nalishlari, ularning iqtisodiy samaradorligi va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Savdo xizmatlari, iqtisodiy samaradorlik, innovatsiya, elektron tijorat, strategik rivojlanish, biznes modeli, logistika, raqamli texnologiyalar, tadbirkorlik, globalizatsiya.

Аннотация: В данной статье анализируются стратегические направления развития торговых услуг. В современных экономических условиях торговые услуги играют важную роль не только в обеспечении экономического роста, но и в формировании инновационных бизнес-моделей. В исследовании рассматриваются ключевые направления торговых услуг, их экономическая эффективность и перспективы дальнейшего развития. Также предложены рекомендации по модернизации торговых услуг в Узбекистане.

Ключевые слова: Торговые услуги, экономическая эффективность, инновации, электронная коммерция, стратегическое развитие, бизнес-модель, логистика, цифровые технологии, предпринимательство, глобализация.

Annotation: This article analyzes the strategic directions for the development of trade services. In the modern economic environment, trade services play a crucial role not only in ensuring economic growth but also in shaping innovative business models. The research examines the key aspects of trade services, their economic efficiency, and future development prospects. Additionally, recommendations for modernizing trade services in Uzbekistan are proposed.

Keywords: Trade services, economic efficiency, innovation, e-commerce, strategic development, business model, logistics, digital technologies, entrepreneurship, globalization.

Kirish. Bugungi kunda xizmatlar sohasi, xususan, savdo xizmatlari jahon iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylangan. Globalizatsiya jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va iste’molchilar talabining o‘zgarishi savdo xizmatlarini takomillashtirish va ularni zamonaviy strategik yo‘nalishlar asosida rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida savdo xizmatlari muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda xizmatlar sohasini modernizatsiya qilish, elektron tijoratni rivojlantirish va biznes uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, savdo xizmatlarini strategik rivojlantirish jarayonida infratuzilmani yaxshilash, logistika tizimini takomillashtirish, iste’molchilar talabini chuqur o‘rganish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi muhim masalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Asosiy qism. Bugungi kunda savdo xizmatlari jahon iqtisodiyotining ajralmas qismi bo‘lib, mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishi va aholi farovonligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston ham bu sohaga alohida e’tibor qaratib, uni strategik yo‘nalishda rivojlantirish choralarini ko‘rmoqda. Tadqiqot davomida O‘zbekistonda savdo xizmatlarining hozirgi holati, rivojlanish dinamikasi va asosiy muammolari chuqur o‘rganildi. Ular quyidagilar:

⇨ Savdo xizmatlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YAIM) sezilarli qismini tashkil etadi va yildan-yilga uning ulushi oshib bormoqda;

⇨ So‘nggi yillarda elektron tijoratning o‘sishi kuzatilmoqda. Onlayn savdo platformalari, elektron to‘lov tizimlari va raqamli xizmatlar bu sohaga yangi imkoniyatlar yaratmoqda;

⇨ Xalqaro tashkilotlar va qo‘shni davlatlar bilan savdo hamkorligi mustahkamlanib, xizmatlar eksporti hajmi oshmoqda;

⇨ Transport va yetkazib berish tizimlarining takomillashtirilmaganligi savdo xizmatlarining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatmoqda;

⇨ Raqamli xizmatlar va onlayn savdoni tartibga solish mexanizmlari hali to‘liq rivojlanmagan;

⇨ Mahalliy kompaniyalar xalqaro bozorda raqobatbardosh bo‘lishi uchun innovatsiyalar va xizmat ko‘rsatish sifati bo‘yicha rivojlanishga ehtiyoj sezilmoqda;

⇨ Onlayn savdo platformalarining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va raqamli infratuzilmani mustahkamlash orqali savdo xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yo‘lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish, kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta’mirlash, agro va veterinariya xizmatlarini ko‘rsatuvchi hamda ko‘ngilochar maskanlarda xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilandi. Bunda: mazkur soliq imtiyozi tadbirkorlik subyektlari tomonidan, agar ularning yuqorida ko‘rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etsa, qo‘llaniladi.

Tadbirkorlik subyektlariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab 2027-yil 1-yanvarga qadar mehmonxona (joylashtirish vositalari) va-maydoni 5 ming kvadrat metrdan yuqori bo‘lgan savdo komplekslari (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkalari) bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 90 foizga kamaytiriladi.

Bunda, 2027-yil 1-yanvargacha yangidan quriladigan obyektlarga (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkasiga) nisbatan mazkur imtiyozni ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab 5 yil muddat davomida qo‘llaniladi. Qaror bilan foyda solig‘ini hisoblashda binolarning qiymatini ikki yil davomida amortizatsiya xarajatlari sifatida chegirish huquqi berildi.

1-jadvaldan shuni ko‘rish mumkinki, respublikaning 13 ta hududlaridagi 31 ta tumanlarida mehmonxona (joylashtirish), savdo, umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi (aylanmadan olinadigan soliq stavkasini – 1 foiz) joriy etildi.[2] Ushbu hududlardagi obyektlar va ular egallagan yer uchastkasi bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i miqdorlarini – mazkur soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilanadi.

[2] Xojiyev Elshod Yoqub o‘g‘li || O‘ZBEKISTONDA SAVDO XIZMATLARI SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI VA ISTIQBOLLARI || 2023-yil, iyul. № 7-son. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

1-jadval

Mehmonxona (joylashtirish), savdo, umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladigan tuman va shaharlar tahlili

T/r	Hudud nomi	Tuman nomi
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Taxtako'pir tumani, Xo'jayli tumani, Ellikqal'a tumani
2	Andijon viloyati	Xonobod shahri
3	Buxoro viloyati	Kogon tumani, Romitan tumani
4	Jizzax viloyati	Arnasoy tumani, Forish tumani, Zomin tumani
5	Qashqadaryo viloyati	Kitob tumani, Shahrisabz tumani, Qamashi tumani
6	Navoiy viloyati	Xatirchi tumani, Nurota tumani, Qiziltepa tumani
7	Namangan viloyati	Chust tumani, Yangiqo'rg'on tumani
8	Samarqand viloyati	Urgut tumani, Payariq tumani, Samarqand tumani, Toyloq tumani
9	Sirdaryo viloyati	Xovos tumani
10	Surxondaryo viloyati	Boysun tumani
11	Toshkent viloyati	Angren shahri, Ohangaron tumani, Parket tumani, Bo'stonliq tumani
12	Farg'ona viloyati	Rishton tumani
13	Xorazm viloyati	Bog'ot tumani, Xiva tumani, Xiva shahri

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Biroq, bu jarayonda infratuzilmani takomillashtirish, huquqiy bazani mustahkamlash va biznes muhitini yanada yaxshilash kabi muhim masalalar hal qilinishi lozim. Innovatsion yondashuvlar va strategik rejalashtirish orqali mamlakat savdo xizmatlarini jadal rivojlantirish hamda global bozorda o‘z o‘rnini mustahkamlash imkoniyatiga ega.

Xulosa va takliflar. Savdo xizmatlari iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, bandlik darajasi va aholining farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda ushbu sohani rivojlantirish yo‘lida jiddiy qadamlar tashlamoqda. Elektron tijoratning rivojlanishi, xizmatlar sohasi infratuzilmasining kengayishi va xalqaro hamkorlikning mustahkamlanishi bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Biroq, sohaga to‘sqinlik qilayotgan muammolar – logistika tizimidagi kamchiliklar, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, tartibga solish masalalari va xalqaro raqobatga tayyorgarlikning sustligi – hal etilishi lozim. Strategik rejalashtirish va ilg‘or tajribalarni joriy qilish orqali ushbu sektorni jadal rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

7. Adam Smith. *The Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.

8. David Ricardo. *Principles of Political Economy and Taxation.* London: John Murray, 1817.

9. Joseph Schumpeter. *The Theory of Economic Development.* Harvard University Press, 1934.

10. Philip Kotler, Kevin Lane Keller. *Marketing Management.* Pearson Education, 2016.

11. Michael E. Porter. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance.* The Free Press, 1985.

OVQATLANISH KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYALARINI QO’LLASHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kalanova M.B. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Marketing” kafedrasi dotsent v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ovqatlanish korxonalarida marketing strategiyalarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari o’rganilgan. Bozor sharoitlarining tez o‘zgarishi va raqobatning kuchayishi sharoitida bunday strategiyalarning samaradorligi tadbirkorlik muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Maqolada ovqatlanish xizmatlari uchun mo‘ljallangan marketing strategiyalarining asosiy turlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mijozlarning ehtiyojlari va xatti-harakatlarini tahlil qilish, zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish, brend yaratish hamda xizmat sifatini yaxshilash usullari batafsil yoritilgan.

Kalit so’zlar: Marketing strategiyalari, korxona, ovqatlanish korxonalari, samarali marketing, mijozlar, innovatsiya, ijtimoiy tarmoqlar

Аннотация. В данной статье исследуются особенности использования маркетинговых стратегий на предприятиях общественного питания. В условиях быстрого изменения конъюнктуры рынка и усиления конкуренции эффективность таких стратегий важна для успеха бизнеса. В статье рассматриваются основные виды маркетинговых стратегий услуг общественного питания, их преимущества и недостатки. Также подробно освещены методы анализа потребностей и поведения клиентов, использования современных инструментов маркетинга, создания бренда, повышения качества обслуживания.

Ключевые слова: Маркетинговые стратегии, предприятие, предприятия общественного питания, эффективный маркетинг, клиенты, инновации, социальные сети.

Abstract. This article examines the specifics of using marketing strategies in catering establishments. In the context of rapidly changing market conditions and increasing competition, the effectiveness of such strategies is important for business success. The article discusses the main types of marketing strategies for catering services, their advantages and disadvantages. It also covers in detail the methods of analyzing customer needs and behavior, using modern marketing tools, creating a brand, and improving service quality.

Key words: Marketing strategies, enterprise, catering enterprises, effective marketing, customers, innovation, social networks

Айнан овқатланиш соҳасида ҳам йирик ишлаб чиқариш корхоналари пайдо бўлаётганлиги янги иш ўринлари билан бир қаторда янги хизмат турларини пайдо бўлишига сабаб бўлмоқда. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ovqatlanish korxonalari uchun marketing strategiyalarini to’g’ri ishlab chiqish va amalga oshirish korxonaning raqobatbardoshligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Bu maqolada ovqatlanish korxonalarida marketing strategiyalarini qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari, ularning o’ziga xos jihatlari va samaradorlikka ta’siri muhokama qilinadi.

Marketing strategiyalari bu – korxonaning bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun belgilangan maqsadlar va ushbu maqsadlarga erishish yo’llarini o‘z ichiga olgan tizimdir. Ovqatlanish korxonalarida marketing strategiyalari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Bozorni o‘rganish va maqsadli auditoriyani aniqlash;
2. Xizmatlar sifatini yaxshilash va mijozlar ehtiyojlarini qondirish;
3. Korxona brendini shakllantirish va rivojlantirish;
4. Savdo hajmini oshirish va raqobatbardoshlikni ta’minlash.

Ovqatlanish korxonalari marketing faoliyati quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Mahsulotning sezgirligi: Ovqatlanish xizmatlari sifat va ta’m jihatidan mijozlar uchun yuqori ahamiyatga ega. Shu bois, mijozlarning mahsulot haqidagi fikrlari marketing strategiyalarida ustuvor o‘rin tutadi.

2. Mavsumiylik: Ovqatlanish xizmatlariga bo‘lgan talab mavsumiy o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘lib, bu marketing rejalashtirishda hisobga olinishi lozim.

3. Hududiy cheklov: Ovqatlanish korxonalari asosan mahalliy bozorda faoliyat yuritadi, bu esa mijozlar bilan yaqin aloqalarni talab qiladi.

4. Innovatsion yondashuv: Zamonaviy texnologiyalar, xususan, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalardan foydalanish marketingni yanada samarali qilish imkonini beradi.

Ovqatlanish korxonalarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan marketing strategiyalari quyidagilardan iborat:

1. Differensiallashgan strategiya: Mijozlarning turli ehtiyojlarini hisobga olgan holda maxsus menyular, xizmatlar yoki aktsiyalar taklif qilish.

2. Narx strategiyasi: Bozor talabiga mos ravishda maqbul narx siyosatini ishlab chiqish va qo‘llash.

3. Reklama strategiyasi: Mahsulot va xizmatlarni targ‘ib qilish uchun ijtimoiy tarmoqlar, internet reklama va boshqa media vositalaridan foydalanish.

4. Sodiqlik dasturlari: Mijozlarni ushlab qolish va ularning qayta murojaat qilishini ta’minlash uchun bonus va chegirmalar tizimini joriy qilish.

Samarali marketing uchun tavsiyalar

1. Mijozlarni o‘rganish: Doimiy ravishda mijozlarning ehtiyojlari va fikr-mulohazalarini o‘rganish orqali xizmat sifatini yaxshilash.

2. Brend yaratish: O‘ziga xos brend yaratish va uni ommalashtirish orqali raqobatchilardan ajralib turish.

3. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish: Instagram, Facebook va TikTok kabi platformalarda faol bo‘lish orqali keng auditoriyaga yetib borish.

4. Marketing samaradorligini baholash: Har bir marketing kampaniyasining natijalarini tahlil qilib, kelgusidagi strategiyalarni takomillashtirish.

Umuman olganda ovqatlanish korxonalarida mahsulot diversifikatsiyasi ham juda muhim. Ovqatlanish korxonalari o’z menyularini doimiy ravishda yangilab turishlari va mijozlarning turli xil ta’bini qondirishi kerak:

Mahalliy taomlar: Mahalliy an’analarni saqlash orqali o’ziga xoslik yaratish.

Sog’lom ovqatlanish: Sog’lom turmush tarziga e’tibor beruvchi mijozlar uchun maxsus taomlar (organik, vegetarian, kaliy kam mahsulotlar va boshqalar) taklif etish.

Bolalar uchun mahsus menyu: Oilaviy tashriflar sonini oshirish uchun bolalarga mo’ljallangan taomlar taklif qilish kerak deb o’ylayman.

Mavsumiy menyular: Fasllarga qarab maxsus taomlar yoki ichimliklar kiritish kerak.

Ovqatlanish korxonalari uchun qulay joy tanlash strategiyaning asosiy qismi hisoblanadi. Ovqatlanish korxonalari iloji boricha ish joylariga yoki universitetlarga yaqin bo’lishi lozim. Ovqatlanish korxonalarining asosiy mijozlari talabalar yoki ishlaydigan xodimlar bo’ladi. Yoki ovqatlanish korxonalarini savdo markazlarida yoki gavjum ko’chalarda ochish ham mijozlar soniga yaxshi tomonlama ta’sir qiladi.

Eng muhim tomonlardan biri albatta bu raqobatchilarni o’rganish, raqobatchilarning menyusi, xizmatlari va narxlarini doimiy kuzatish orqali ulardan farqlanuvchi jihatlar yaratish mumkin. Raqobatchidan sifat jihatidan ustun bo’lgan mahsulotlarni taklif qilish lozim va mahalliy bozorda noyob mahsulotlar va xizmatlar joriy qilish lozim.

Ijtimoiy ma’suliyat va brend imidjini yaratish lozim deb o’ylayman. Atrof muhitga e’tibor: Qayta ishlanuvchi idishlardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish kabi tashabbuslar mijozlarda yaxshi taasurot qoldiradi. Jamiyatga hissa qo’shish: mahalliy jamiyatga yordam berish orqali brendga ishonchni oshirish mumkin.

Ovqatlanish korxonalarida marketing strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi va daromadini ko‘paytiradi. Zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish, mijozlarga yo‘naltirilgan

yondashuv va innovatsion strategiyalarni qo‘llash sohada muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridir. Maqolada keltirilgan tavsiyalar marketing strategiyalarini samarali tashkil etishda amaliy yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy ovqatlanish tashkilotlarining faoliyatini yanada takomillashtirish va xodimlarining kasbiy darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 10.10.2012 yildagi 289-son.
2. Каланова, Мохигул. (2024). Дунёда бренд остида фаолият юритаётган йирик овқатланиш тармоғининг ўзига хос хусусиятлари. Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. 1. 293-298. 10.60078/3060-4842-2024-vol1-iss2-pp293-298.
3. Chaffey, D., Ellis-Chadwick, F. "Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice." Pearson, 2020-yil.
4. Bala, M., Verma, D. "Artificial Intelligence and its Role in Marketing." International Journal of Research in Engineering, Science and Management, 2022-yil
5. Kotler P., Keller K. "Marketing Management". – Pearson Education, 2016.
6. Kotler P., Armstrong G. "Principles of Marketing". – Pearson, 2018.
7. Ibodov K.M. Marketing. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2019.- 424 b.

МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИНГ МОҲИЯТИ ВА РИВОЖЛАНИШИ

Дусматов Бегмухаммад Олимжонович
СамИСИ “Реал иқтисодиёт”
кафедраси доценти
Мирзаахмедов Мирзиё Улуғбек ўғли
СамИСИ “Иқтисодиёт” факультети талабаси

Аннотация: Мазкур мақолада Халқаро иқтисодий рақобат техник тараққиётнинг энг муҳим омили ҳисобланади ва унинг таъсирида ишлаб чиқариш, бошқарув технологияларининг доимий янгиланиб бориш жараёни давом этади, ишлаб чиқарилаётган маҳсулот турлари янгиланади ва сифати ортиб бориши ёритилган.

Калит сўзлар: Рақобат, маҳсулотнинг рақобатбардошлиги, саноат корхоналари, менежмент, инновация, инновацион бошқарув, инновацион фаолият.

Аннотация: В этой статье международная экономическая конкуренция является важнейшим фактором технического развития, и ее влияние будет продолжать процесс постоянного обновления технологий производства и управления, будут обновляться виды производимой продукции и будет отражаться повышение качества

Ключевые слова: Конкуренция, конкурентоспособность продукции, промышленные предприятия, менеджмент, инновации, инновационный менеджмент, инновационная деятельность.

